

YURIDIK TEXNIKUM

Akbarov Axrorjon Anvarjon o'g'li

Farg'ona Yuridik texnikumi

2-kurs o'quvchisi

Sud huquqiy faoliyati yo'nalishi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Toshkent shaxri va viloyatlar bo'y lab tashkil etilgan Yuridik texnikumlar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: yuridik texnikum, ta'lim, tarbiya, fan, kadr, salohiyat.

"Har kimki hayotdan olmasa ta'lim, unga o'rgatolmas hech bir mualim" degan naql necha asrlarkim xalqimizni ijtimoiy munosabatlarda faolikka chorlab keladigan bebaho ibratdir. Chindan ham har bir inson yon atrofga teran boqqani sari uni kengroq ko'ra boshlaydi. Men yuridik texnikum o'quvchisi sifatida turli xil huquqiy bilimlarni baholi qudrat nazariy jihatlarini o'qib boryapman. Shuningdek bilim ko'nikmalarini amalyotda ya'ni hayotiy voqealarda aks etganini ko'rib huquq olamiga bo'lgan qiziqishim yanada ortyapti. Sababi Fuqarolik huquq va burchlari, Mehnat muhofazasi, iste'molchi huquqlari kabi asosiy ijtimoiy munosabatlarni ayniqsa ko'p uchratamiz va uning subektiga aylanamiz ham. Aytmochimanki, aynan shu vaziyatlarda to'g'ri yo'l tutish, huquqlardan foydalana olish, burchlarni anglash muhimdir. To'grisini aytsam men buni yuridik texnikumga kirganimdan so'ng kengroq tushuna boshladim. Shubhasizki bu menga juda asqotyabdi. Axir biz huquqlardan foydalana olsak va ularga amal qilsak hech qanday ziddiyatlar kelib chiqmaydi deydilarku huquqshunoslari.

Hayotimizni xar jabhasida huquq ro'l o'ynaydi. Shuning uchun biz fuqarolar (ayniqsa men va men kabi yoshlar) uni yaxshi bilishimiz kerak deb o'ylayman. Bunday fundamental bilimlarni esa viloyatlardagi yuridik texnikumlar jamoatchilikka samarali yetkizmoqdalar. Men ham Farg'ona viloyati Yuridik texnikumi o'quvchisi sifatida men kabi yoshlarni bu dargohda o'qib, huquqiy bilimlarni egallashni tavsiya etar edim.

"Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir."

Respublikamizda 14 ta yuridik texnikum tashkil etilgan bo'lib, ularda quyidagi mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayloranadi:

Davlat-huquqiy faoliyati;

Yuridik xizmat;

Sud-huquqiy faoliyati.

Texnikumga 11-sinfni tamomlagan o'quvchilar yoki litsey va kollej bitiruvchilari hujjat topshirishlari mumkin. O'qishga kirish uchun abituriyentlar hujjatlari Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı (my.gov.uz) yoki Davlat test markazining rasmiy veb-sayti (www.dtm.uz) orqali amalga oshiriladi. Hujjatlar qabul qilish 25-avgustdan 25-sentabrgacha (shu kuni ham) bo'lib o'tadi. Abituriyentlarni qabul qilish Davlat test markazi o'tkazadigan test sinovlari orqali amalga oshiriladi. Test sinovlarida yuqori bal olishga erishgan abituriyentlar davlat granti va to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilinadilar. Bundan tashqari kam ta'minlangan oila a'zolari, "Mehribonlik uyi" va 1-guruh nogironligi, shu jumladan ko'zi ojiz bo'lган shaxslardan iborat abituriyentlar davlat granti asosida, bali yetmagan abituriyentlar esa tabaqalashtirilgan to'lov kontrakt (super-kontrakt) asosida ham o'qishga qabul qilinishi mumkin.

Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi akademik litseyni tamomlagan o'zlashtirish ko'rsatkichlarining 56 va undan yuqori foyizlik natijalarga ega bitiruvchilar hamda respublika oliy ta'lim muassasalarida "yurispuridensiya" ta'lim yo'nalishi bo'yicha test sinovlarida ishtiroy etib, biroq yuridik texnikumlardagi test sinovlaridagi o'tish balini to'plagan, o'qishga tavsiya etilmagan abituriyentlar yuridik texnikumlarga kirish imtixonlarisiz o'qishga qabul qilinadilar.

O'qish muddati 2 yil bo'lib, bu vaqt davomida o'quvchi a'lo baholarga o'qib na'munali xulqi bilan boshqalarga o'rnak bola olsa imtiyozni qo'lga kiritishi mumkin. Texnikumni muvofaqiyatli bitirgan va inglistilini bilish bo'yicha milli sertifikati (SEFR B2) yoki IELTS kamida 5.5 darajaga ega bo'lgan o'quvchilarga Adliya boshqarmasi yo'llanmasiga asosan Diplomatiya va Respublikamizdag'i yuridik unversitetlarning 2-bosqichidan o'qishni davom ettirish uchun yo'llanma beriladi.

Siz texnikumni tamolagandan so'ng 89 ta mutaxasislikda, hususan:

Notarius yordamchisi; FHDYo bo'limi inspektori; Davlat xizmatlari markazi mutaxassisi; Sudya yordamchisi hamda Davlat ijrochisi lavozimlarida ishлаshingiz mumkin.

Ta'kidlash joizki, yuridik texnikumlarda ta'lim jarayonini sifatlari va samarali tashkil etishda Toshkent davlat yuridika universiteti alohida jonbozlik ko'rsatmoqda. Jumladan texnikumlar uchun bugungi kun talablariga mos o'quv dasturlarini ishlab chiqish, ta'lim mazmunini takomillashtirish , axborot resurs ta'minotida universitet yaqidan yordam beryabdi. TDYU rektori Rahimjon Hakimov bu haqida to'xtalar ekan, oliv o'quv yurti jamoasi o'rta ma'lumotli yuridik kadrlarni tayyorlash masalasiga bundan meyin ham jiddiy e'tibor qaratishini hamda tegishli ta'lim muassasalariga o'quv-uslubiy ko'mak ko'rsatishga doimo shay ekanini aytgan.

Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev biz yoshlarga yaratayotgan har javhadagi bitmas tunganmas sharoitlardan unumli foydalana olishimiz kerak va rivojlanayotgan O'zbekistonimizni rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishiga o'z xisamizni qo'shishimiz lozimdir.

Fodalanalig'an adabiyotlar:

1. "O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi Yuridik texnikumlari faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qaror.

